

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
A K A D E M I Y A

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
JINOYAT HUQUQI

Umumiyl qism

CHIZMALAR ALBOMI

Toshkent – 2014

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Tahririyat-noshirlik hay'atida ma'qullangan*

Mualliflar jamoasi:

yuridik fanlari doktorlari **A.S. Yakubov, R. Kabulov;**
yuridik fanlar nomzodlari, dotsentlar **A. A. Otajonov, B. B. Matlyubov; D. Yu. Payziyev, T. R. Kuchkarov**

Taqrizchilar:

Toshkent davlat yuridik Universiteti Jinoyat huquqi va kriminologiya kafedrasi mudiri,
yuridik fanlar doktori, professor **Q. R. Abdurasulova;**
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Jinoyatlarning oldini olish kafedrasi boshlig'i,
yuridik fanlar doktori, professor **I. Ismailov;**
Toshkent shahar IIBB Tergov boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinnbosari,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent **A. Sh. Umarxanov**

Chizmalar albomi oliy ta'limning 380000 – «Huquq» sohasi, 5380100 – «Yurisprudensiya» yo'nalishi uchun «Jinoyat huquqi» fanidan namunaviy dastur asosida tayyorlangan bo'lib, unda 2014 yil 1 fevralgacha bo'lgan qonunchilikdagi o'zgarishlar inobatga olingan.

Chizmalar albomida jinoyat huquqining Umumiyligi qismi asosiy nazariy va normativ qoidalarining to'liq ta'rifni chizmalar shaklida berilgan. Darsliklar, sharhlari va boshqa maxsus adabiyotlar bilan bir qatorda, ushbu chizmalar yuridik ta'lim muassasalarining tinglovchi, kursant va talabalariga jinoiy-huquqiy normalarni o'rganishda yordam ko'rsatishi va o'quv fanlari materiallarini chuqur o'zlashtirishiga zamin yaratadi.

Chizmalar albomi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tuzilishi asosida tizimga solingan.

BBK 67.99(5U)8

KIRISH

Jinoyat huquqi – mustaqil huquq sohasi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining ajralmas qismidir. Jinoyat huquqi, huquq tizimini tashkil qiluvchi boshqa sohalar – konstitutsiyaviy, fuqaroviylari, ma’muriy, jinoyat-ijroiya va shu kabilalar bilan birgalikda jamiyatda shakllangan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga mo‘ljallangan. Shu bilan birgalikda boshqa huquq sohalaridan farqli ravishda, jinoyat huquqi o‘zining bu vazifasini o‘ziga xos tarzda bajaradi: eng muhim va ahamiyatli ijtimoiy munosabatlarni maxsus usul va vositalar bilan qo‘riqlaydi, shu bilan ularning normal faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi, maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratadi, jamiyat ijtimoiy hayotining barcha asosiy sohalarida – ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va boshqa yo‘nalishlarda keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishdagi birlamchi vazifalarni bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi Umumiy va Maxsus qism yuridik normalaridan iborat. Mazkur o‘quv qo‘llanmasi shu tuzilishga binoan tayyorlandi, unda chizmalar ko‘rinishida jinoyat huquqi Umumiy qismining asosiy nazariy va normativ qoidalariga keng tavsif berilgan.

O‘quv qo‘llanmasida jinoyat huquqi Umumiy qismini tashkil qiluvchi «jinoyat huquqi» tushunchasi, vazifasi va predmeti, jinoyat qonuning vaqt, hudud va shaxslar doirasida amal qilish

chegarasi va prinsiplari, jinoiy javobgarlik, jinoyat tarkibi, tamom bo‘limgan jinoyatlar, jinoyatda ishtirokchilik, bir qancha jinoyatlar, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar, «jazo» tushunchasi, uning turlari va jazolarni tayinlash tartibi, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish asoslari va boshqa holatlar chizmalar ko‘rinishida yoritib berilgan.


Mazkur o‘quv qo‘llanma fundamental bilim olish uchun mo‘ljallangan darsliklarga muqobil hisoblanmaydi. Shu bilan birga, ushbu qo‘llanmadan foydalanib, tinglovchilar qisqa muddatlarda jinoyat huquqi fanini o‘rganish jarayonida olgan bilimlarini tizimlash-tirishlari va aniqlashtirishlari; asosiy tushunchalar, ularning belgilari va xususiyatlariga o‘z e’tiborlarini jamlashlari; nazariy va amaliy xususiyatga ega bo‘lgan savollarga javoblarni shakllantirib olishlari mumkin.

Birinchi bo'lim. UMUMIY QOIDALAR

I bob. Jinoyat kodeksining vazifalari va prinsiplari

«Jinoyat huquqi» tushunchasi

Jinoyat huquqi bir necha ma'nolarda tushuniladi:



«JINOYAT HUQUQI» TUSHUNCHASI

Huquq sohasida

demokratik O‘zbekiston zamonaviy huquq tizimining tarkibiy qismidir

O‘quv fanida

huquqshunoslik yo‘nalishlaridagi ta’lim muassasalarida o‘qitiladi

Qonunchilik sohasida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinuvchi jinoiy javobgarlikning asoslari va prinsiplarini alohida qilmishlarning jinoiyligi va jazoga sazovorligi, javobgarlik va jazodan ozod qilishning asoslari va doirasi, jinoiy-huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash va boshqa jinoiy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar yig‘indisidir

Fan sohasida

jinoyat qonunchiligining rivojlanish tarixini, amaldagi qonunchilikni, jinoiy-huquqiy normalarni qo‘llash samaradorligini, xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligini, jinoyat qonunchiligini qo‘llashning nazariy, ilmiy va boshqa muammolarni o‘rganishga oid bilimlar, g‘oyalar hamda qarashlar yig‘indisidir

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JINOYAT TO'G'RISIDAGI QONUN HUJJATLARI (JK 1-m.)

**O'zbekiston Respublikasining jinoyat to'g'risidagi qonun
hujjatlari quyidagilarga asoslanadi**



O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasiga



Xalqaro huquqning umum e'tirof
etgan normalariga

**O'zbekiston Respublikasining jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlari
O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidan iborat**

JINOYAT TO‘G‘RISIDAGI QONUN HUJJATLARI TIZIMI

Jinoyat huquqining tizimi


Umumiy qism

jinoyat huquqining asosiy prinsiplari va qoidalarini, vazifalarini, jinoyat qonunining amal qilish doirasini, javobgarlik va jazo asoslarini, ularning maqsadlari va qo‘llash tartibini, qilmishning jinoyligini istisno qiladigan holatlarni, voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari hamda jinoyat qonunchiligi uchun umumiylahamiyatga ega bo‘lgan boshqa qoidalarni belgilovchi normalarni o‘z ichiga oladi


Maxsus qism

Qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligini aniqlab beruvchi, ularni sodir etgan shaxslarga qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jazo choralarini va ayrim turdagijinoyatlar uchun rag‘batlantiruvchi normalarni o‘z ichiga oladi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT KODEKSINING TUZILISHI



JINOYAT HUQUQI NORMALARINING TUZILISHI



JINOYAT HUQUQI NORMALARINING TUZILISHI

Dispozitsiya turlari

Jinoiy-huquqiy normaning bir qismi bo‘lib, unda jinoyatning belgilari, javobgarlik shartlari bayon etiladi

Oddiy	Ta’riflovchi	Havola etuvchi	Blanket	Aralash
Normada jinoyatning belgilari atroficha yoritilmasdan, uning eng asosiy belgilariga ko‘rsatiladi	Normada jinoyatning eng asosiy belgilari yoritiladi va ta’riflanadi	Normada jinoyatning belgilari to‘liq yoritilmasdan, uning mazmunini tushunish uchun kodeksning boshqa bir normasiga havola qilinadi	Normada jinoyatning belgilari to‘liq yoritilmasdan, uning mazmunini tushunish uchun boshqa normativ hujjatlarga havola qilinadi	Normada dispozitsiyaning bir necha turlarini o‘z ichiga qamrab oladi

JINOYAT HUQUQI NORMALARINING TUZILISHI

«Sanksiya» tushunchasi va uning shakllari

Jinoiy-huquqiy normanining bir qismi bo‘lib, unda sodir etilgan jinoyat uchun jazo chorasi, uning turi va me’yori ko‘rsatiladi.

Nisbiy-muayyan

normada aniq turdag'i jazoning
eng kam va eng ko‘p
chegarasini belgilaydi

Muqobil

normada ikki yoki undan
ortiq jazo turlari ko‘rsatiladi


JINOYAT QONUNINI SHARHLASH

Jinoyat qonunlarini sharhlash turlari

Subyekti bo'yicha	Usuli bo'yicha	Hajmi bo'yicha
rasmiy	grammatik	so'zma-so'z
doktrinal	tarixiy	chegaralangan
sud tomonidan	tizimli	kengaytirilgan
autentik	mantiqiy	

JINOYAT KODEKSINING VAZIFALARI (JK 2-m.)

Quyidagilarni jinoiy tajovuzlardan qo‘riqlaydi:



jinoyatlarning oldini oladi

fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalaydi

JINOIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH PREDMETI VA METODI

Jinoyat huquqi predmetini jinoyat qonunchiligi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tashkil qiladi

jinoiy-huquqiy taqiqni o‘rnatish

jinoiy jazodan ozod qilish

jinoiy-huquqiy sanksiyalarni
qo‘llash

tibbiy yo‘sindagi majburlov
choralarini qo‘llash

jinoiy javobgarlikdan ozod qilish

qonunda aniq ko‘rsatilgan hollarda
fuqarolarga qonun bilan
qo‘riqlanadigan manfaatlarga zarar
yetkazish huquqini berish

KODEKSNING PRINSIPLARI

Prinsiplar – jinoyat qonunida mustahkamlab qo‘yilgan demokratik davlatning jinoiy-huquqiy siyosati mohiyatini va zamonaviy yo‘nalishlarini ifodalaydigan, sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikning asoslari, chegaralari va shakllari haqida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, axloqiy va huquqiy tasavvurlarni aks ettiradigan yetakchi g‘oyalar va asosiy qoidalar

qonuniylik
(JK 4-m.)

fugorolarning qonun oldida
tengligi (JK 5-m.)

demokratizm
(JK 6-m.)

Jinoyat kodeksining
prinsiplari


insonparvarlik
(JK 7-m.)

odillik
(JK 8-m.)

ayb uchun javobgarlik (JK
9-m.)

javobgarlikning
muqarrarligi (JK 10-m.)

II bob. Kodeksning amal qilish doirasi



JINOYAT KODEKSI MAKONDA AMAL QILISHINING HUDUDIYLIK PRINSIPI (JK 11-m.)

Jinoyat qonuni makonda amal qilishining hududiylik prinsipi bu barcha shaxslar, ya'ni fuqaroligidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyat sodir etgan bo'lsalar, jinoyat sodir etilgan joyda amal qiladigan jinoyatlar to'g'risidagi qonunlarga ko'ra javobgarlikka tortilishidir

**Quyidagi hollarda O'zbekiston hududida sodir etilgan qilmish
jinoyat deb topiladi, agar:**

O'zbekiston
hududida
boshlangan,
tamomlangan yoki
to'xtatilgan bo'lsa
(2-q. "a" b.)

O'zbekiston
hududidan tashqarida
sodir etilib, jinoiy
oqibati esa,
O'zbekiston hududida
yuz bergan bo'lsa
(2-q. "b" b.)

O'zbekiston
hududida sodir
etilib, jinoiy oqibati
esa, O'zbekiston
hududidan
tashqarida yuz
bergan bo'lsa
(2-q. "v" b.)

bir necha qilmishlardan
iborat yoki boshqa
qilmishlar bilan
birgalikda sodir etilgan
bo'lib, uning bir qismi
O'zbekiston hududida
yuz bergan bo'lsa
(2-q. "g" b.)

JINOYAT KODEKSINING O'ZBEKISTON HUDUDIDAN TASHQARIDA JINOYAT SODIR ETGAN SHAXSLARGA NISBATAN AMAL QILISHI (JK 12-m.)

Fuqarolik prinsipi

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekistonda doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, basharti boshqa davlat hududida sodir etgan jinoyat uchun o'sha davlat sudining hukmi bilan jazolangan bo'lmasalar, ushbu Kodeks bo'yicha javobgarlikka tortiladilar (1-q.)

Universallik prinsipi

Chet el fuqarolari, shuningdek O'zbekiston hududida doimiy yashamaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston hududidan tashqarida sodir etgan jinoyatlari uchun faqat xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda nazarda tutilgan hollardagina ushbu Kodeks bo'yicha javobgarlikka tortiladilar (3-q.)

O'zbekiston fuqarosi chet el davlati hududida sodir etgan jinoyati uchun, agar xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, ushlab berilishi mumkin emas (2-q.)

QONUNNING VAQT BO‘YICHA AMAL QILISHI (JK 13-m. 1-q.)

Qilmishning jinoiyligi va jazoga sazovorligi ana shu qilmish sodir etilgan vaqtda amalda bo‘lgan qonun bilan belgilanadi

Jinoyat sodir etilgan vaqt

Formal tarkibli jinoyatlarda

agar Jinoyat kodeksi moddasida harakat yoki harakatsizlik sodir qilish payti jinoyat tamomlangan payt deb hisoblangan bo‘lsa, ijtimoiy xavfli qilmish bajarilgan payt jinoyat sodir qilingan vaqt deb topiladi

Moddiy tarkibli jinoyatlarda

agar Jinoyat kodeksi moddasida jinoiy oqibat yuz berishi bilan jinoyat tamom bo‘lgan deb hisoblangan bo‘lsa, jinoiy oqibat yuz bergen payt jinoyat sodir etish vaqt deb topiladi

JINOYAT QONUNINING ORQAGA QAYTISH KUCHI (JK 13-m. 2 va 3-q.)

Jinoyat qonuni orqaga qaytish kuchiga ega, agar u:

*qilmishning jinoiyligini
bekor qilsa*

*jazoni
yengillashtirsa*

*shaxining boshqacha tarzda
shaxsning ahvolini yaxshilasa*

Qonunning orqaga qaytish kuchi, ushbu qonun kuchga kirgunga qadar tegishli jinoiy qilmish sodir etgan shaxslarga, shu jumladan jazoni o'tayotgan yoki o'tab bo'lgan shaxslarga nisbatan, agar ular hali sudlangan hisoblansalar, tatbiq etiladi

Yangi qabul qilingan qonun orqaga qaytish kuchiga ega emas, agar u:

*qilmishni jinoyat deb
hisoblasa*

*jazoni
og'irlashtirsa*

*shaxsning holatini bosh-
qacha tarzda yomonlashtirsa*

Ikkinchi bo'lim. JAVOBGARLIK ASOSLARI

III bob. Jinoyat


JINOYAT TUSHUNCHASI (JK 14-m.)

Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi

JINOYATNING BELGILARI

<i>Ijtimoiy xavflilik</i>	<i>Aybllilik</i>	<i>Huquqqa xiloflik</i>	<i>Jazoga sazovorlik</i>
jinoyatning obyektiv xususiyatini belgilab, jinoiy huquqiy muhofaza obyektlariga zarar keltiruvchi yoki zarar yetkazish xavfini keltirib chiqaruvchi qilmishlarnigina jinoyatlar toifasiga kiritishni ifodalaydi	shaxsning o'zi sodir etayotgan jinoiy qilmishiga qasd yoki ehtiyyotsizlik shaklidagi subyektiv munosabati tushuniladi	ijtimoiy xavflilikni yuridik ifodasi bo'lib, jinoyatlar to'g'risidagi qonunda taqiqlangan muayyan ijtimoiy xavfli qilmishgina jinoyat deb tan olinishini bildiradi	aniq jinoyatni sodir etganlik uchun qonunda jazo tahdidi va jazo qo'llanishi mumkinligining o'rnatilganligi tushuniladi

JINOYATLARNI TASNIFFLASH (JK 15-m.)



JINOYATLARNI TASNIFFLASH

Ijtimoiy xavfi katta bo‘limgan jinoyatlar (JK 15-m. 2-q.)

qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko‘p bo‘limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar

ehtiyoitsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko‘p bo‘limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar

Uncha og‘ir bo‘limgan jinoyatlar (JK 15-m. 3-q.)

qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko‘p bo‘limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar

ehtiyoitsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar

JINOYATLARNI TASNIFFLASH

OG‘IR JINOYATLAR (JK 15-M. 4-Q.)

qasddan sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq, lekin un yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar

O‘ta og‘ir jinoyatlar (JK 15-m. 5-q.)

qasddan sodir etilib, qonunda o‘n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoxud umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar

JINOYAT UCHUN JAVOBGARLIK VA UNING ASOSLARI

«JINOIY UCHUN JAVOBGARLIK» TUSHUNCHASI (JK 16-m. 1-q.)

Jinoyat uchun javobgarlik – jinoyat sodir etishning huquqiy oqibati bo‘lib, jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan qo‘llaniladi va quyidagilarda ifodalanadi:



hukm qilishda



jazo
qo‘llashda



boshqa huquqiy ta’sir
chorasini qo‘llashda

JINOYAT UCHUN JAVOBGARLIK VA UNING ASOSLARI

JINOIY JAVOBGARLIK BELGILARI

yuridik mazmuniga ko‘ra sodir etilgan jinoyatning huquqiy oqibatidir

jinoiy javobgarlik hukm qilish, jazo va boshqa huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash
shaklidagi davlat majburlovida ifodalanadi

jinoiy javobgarlik jinoiy-huquqiy munosabatlar doirasida vujudga keladi, amalga
oshiriladi va tugallanadi

jinoiy javobgarlik faqat amalda sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish uchun vujudga
keladi

jinoiy javobgarlik faqat sud tomonidan qo‘llaniladi

JINOIY JAVOBGARLIKNI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI

aybdorga jazo qo‘llamasdan sud qilish

aybdorga jazo belgilab, uni real ijro etishdan ozod etib sud qilish

aybdorga jazo belgilab, uni ijro etgan holda sud qilish

aybdorga nisbatan jazo va tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini tayinlab, ularni real ijro etishni belgilash bilan sud qilish


voyaga yetmagan shaxsni jazodan ozod qilish va unga nisbatan majburlov choralarini qo‘llash

JINOYAT UCHUN JAVOBGARLIK VA UNING ASOSLARI

JINOYAT UCHUN JAVOBGARLIK ASOSLARI (JK 16-m. 2-q.)

Jinoyat Kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mayjud bo‘lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi


JAVOBGARLIK ASOSLARI



Faktik va normativ asoslar yig‘indisi jinoiyat javobgarlikning umumiy asosini tashkil qiladi

JINOYAT TARKIBI

Jinoyat tarkibi – jinoyat qonuniga ko‘ra aniq ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat sifatida tavsiflovchi eng kam va yetarli obyektiv va subyektiv belgilar yig‘indisi



JINOYAT TARKIBINING TASNIFI

Jinoyat tarkiblarining turlari

**Normaning tuzilishga
ko‘ra turlari**

**Ijtimoiy xavflilik darajasi va
xususiyatiga ko‘ra turlari**

**Yozilish usuliga ko‘ra
turlari**

Formal tarkib

Asosiy tarkib

Oddiy tarkib

Moddiy tarkib

Yengillashtiruvchi tarkib

Murakkab tarkib

Og‘irlashtiruvchi tarkib

Alovida og‘irlashtiruvchi tarkib

JINOYAT TARKIBLARINING TASNIFI

Jinoyat tarkibining yozilish usuliga ko‘ra turlari

Oddiy tarkibli jinoyat

Jinoyat tarkibida bir obyekt, bir qilmish va oqibat hamda aybning bir shakli nazarda tutilgan tarkib

Murakkab tarkibli jinoyat

ko‘p obyektlili jinoyat

murakkab aybli jinoyat

muqobil tarkibli jinoyat

bir necha jinoiy qilmishlardan tashkil topgan jinoyat

zaruriy belgilar sifatida bir necha jinoiy oqibatlarni o‘z ichiga olgan jinoyat

tarkibli jinoyatlar

JINOYAT OBYEKTI

Jinoyat obyekti – qonun bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar



Jinoyat obyektining ahamiyati

Jinoyatning ijtimoiy xavfli xususiyatini belgilaydi

Jinoyatlar o‘zaro farqlanishining asosi hisoblanadi

Jinoiy javobgarlik asoslarining elementlaridan
biri hisoblanadi

Jinoyatlarning tizimli tasniflashni mezoni bo‘lib
xizmat qiladi



*Jinoyat predmeti –jinoyat
sodir etilishi natijasida
ta’sir etilishi mumkin
bo‘lgan narsa yoki buyum*

JINOYAT OBYEKTLARINING TURLARI

JINOYAT OBYEKTLARINING TURLARI

<i>Umumiy</i>	<i>Turdosh</i>	<i>Bevosita</i>
jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan barcha ijtimoiy munosabatlarning yig‘indisi	jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan, o‘z mohiyatiga ko‘ra turdosh guruhdagi ijtimoiy munosabatlar	jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan, aniq bir jinoiy tajovuz natijasida zarar yetkazilishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy munosabat

JINOYATNING BEVOSITA OBYEKTI TURLARI

Ko‘p obyektlari jinoyatlarda bevosa obyektning turlari

<i>Jinoyatning asosiy bevosa obyekti</i>	<i>Jinoyatning qo‘shimcha bevosa obyekti</i>	<i>Jinoyatning fakul- tativ bevosa obyekti</i>
normaning tuzilishiga ko‘ra birinchi navbatda qo‘riqlanadigan, turdoch obyektning bir qismini tashkil etadigan ijtimoiy munosabat	normaning tuzilishiga ko‘ra qo‘riqlanadigan, lekin bosha bir turdosh obyektning bir qismini tashkil etadigan ijtimoiy munosabat	tajovuz natijasida zarar yetkazilishi mumkin bo‘lgan, lekin normaning tuzilishiga ko‘ra qo‘riqlanmaydigan ijtimoiy munosabat

JINOYATNING OBYEKTIV TOMONI

**Jinoyatning obyektiv
tomoni** – sodir etilgan
ijtimoiy xavfli
qilmishning tashqi
ko‘rinishini, holatini
ifodalovchi belgilar
yig‘indisi.


Jinoyatning obyektiv tomoni ahamiyati:

jinoyat
tarkibining
asosiy elementi
hisoblanadi

jinoyat
tarkibining
boshqa belgilari
va elementlari
bo‘yicha mos
keladigan
jinoyatlarni
o‘zaro ajratish
imkonini beradi

jinoyatlarni
to‘g‘ri
kvalifikatsiya
qilish uchun
muhim ahamiyat
kasb etadi

JINOYATNING OBYEKTIV TOMONI BELGILARI



IV bob. Javobgarlikka tortilishi lozim bo‘lgan shaxslar

Jinoyat subyekti – ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan va jinoyat qonuniga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lgan jismoniy shaxs

JINOYAT SUBYEKTINING BELGILARI

Umumiy

jismoniy shaxs

aqli rasolik

javobgarlik yoshiga
yetganlik

Maxsus

Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddasining dispozitsiyasida bevosita ko‘rsatilgan yoki undan kelib chiqadigan, asosiy belgililar bilan birga qo‘srimcha belgilarga ega bo‘lgan shaxs

JISMONIY SHAXSLARNING JAVOBGARLIGI (JK 17-m.)

Javobgarlikka aqli raso, jinoyat sodir etgunga qadar quyidagi yoshga to‘lgan jismoniy shaxslar tortiladilar:

16 yosh
– jinoyat uchun javobgarlikning umumiy yoshi

13 yosh
– javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirganlik uchun
(JK 97-m. 2-k.)


14 yosh
– Jinoyat kodeksi 17-moddasi 3-qismida ko‘rsatilgan jinoyatlar uchun

18 yosh
– Jinoyat kodeksi 17-moddasi 4-qismida ko‘rsatilgan jinoyatlar uchun

18 yoshga to‘lgunga qadar jinoyat sodir etgan shaxslarning javobgarligi umumiy asoslarda hamda JK Umumiy qismning oltinchi bo‘limida ko‘rsatilgan xususiyatlarni inobatga olgan holda vujudga keladi


AQLI RASOLIK (JK 18-m. 1-q.)

Jinoyat sodir etish vaqtida o‘z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan va o‘z harakatlarini boshqara olgan shaxs aqli raso deb topiladi



AQLI NORASOLIK (JK 18-m. 2-q.)


Aqli norasolik – shaxsning ruhiy xolatiga ko‘ra o‘z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglay olmasligi va uni boshqara olmasligidir



Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs sud tomonidan aqli noraso deb topilsa, unga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralar qo‘llanilishi mumkin (JK 18-m. 3-q.)

MASTLIK HOLATIDA SODIR ETILGAN JINOYAT UCHUN JAVOBGARLIK (JK 19-m.)

Agar shaxs quyidagi holatlarda jinoyat sodir etgan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod qilinmaydi:



JINOYATNING MAXSUS SUBYEKTI

Jinoyatning maxsus subyekti – subyektning asosiy belgilaridan tashqari jinoiy-huquqiy normada nazarda tutilgan yoki ulardan kelib chiqadigan, qo'shimcha belgilarga ega bo'lgan shaxs

Qo'shimcha belgilar quyidagilarda tavsiflanadi:

huquqiy holatiga ko'ra
(masalan, JK 157, 160-m.m.)

oilaviy, karindoshlik munosabatlariga ko'ra
(masalan, JK 122, 123-m.m.)

harbiy majburiyatga munosabatiga ko'ra (masalan,
JK 280, 301-m.m.)

kasb majburiyatiga ko'ra
(masalan, JK 116-m.)

demografik belgilariga ko'ra, jinsi, yoshi va
x.k. (masalan, JK 120-m.)

kasb faoliyatiga ko'ra
(masalan, JK 262-m.)

mansabdorlik holatiga ko'ra
(masalan, JK 205, 207-m.m.)

davlat oldidagi majburiyatlariga ko'ra
(masalan, JK 262-m.)


egallab turgan lavozimiga ko'ra
(masalan, JK 260-m.)

jabrlanuvchining alohida holatiga ko'ra
(masalan, JK 262-m.)

V bob. Ayb


JINOYATNING SUBYEKTIV TOMONI

Jinoyatning subyektiv tomoni – shaxsning sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishi va uning jinoiy oqibatiga bo‘lgan ruhiy munosabati



AYBNING SHAKLLARI (JK 20-m.)

Ayb shakli – element va jarayonlarning o‘rtasidagi, ularni tashqi shart-sharoitlar bilan o‘zaro munosabatlarning ichki aloqasini va tashkil qilish vositalarini ifodalovchi tuzilishdir



AYB MAZMUNI

Subyektning muayyan obyektiv belgilariga bo‘lgan munosabatini tashkil qiluvchi intellektual va irodaviy-ruhiy elementlar yig‘indisi

Qasd shaklidagi aybning mazmuni (JK 21-m.)


	<i>Intellektual belgi</i>	<i>Irodaviy belgi</i>
To‘g‘ri qasd (formal tarkibli jinoyatlarda)	Ijtimoiy xavflilik xususiyatni anglash	Bu qilmishni sodir etishni istash
To‘g‘ri qasd (moddiy tarkibli jinoyatlarda)	Ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglash Ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishga ko‘zi yetish	Ijtimoiy xavfli oqibatni kelib chiqishini istash
Egri qasd	Ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglash Ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishga ko‘zi yetish	Ijtimoiy xavfli oqibatni kelib chiqishiga ongli ravishda yo‘l qo‘yish

Ehtiyyotsizlik shaklidagi aybning mazmuni (JK 22-m.)

	<i>Intelлектual belgisi</i>	<i>Irodaviy belgisi</i>
Jinoiy o‘z-o‘ziga ishonish	shaxsning o‘zining xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko‘zi yetganligi	<ul style="list-style-type: none"> – ehtiyyotkorlik chora-tadbirlariga ongli ravishda rioya etmaganligi – bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qilganligi
Jinoiy beparvolik	<ul style="list-style-type: none"> – shaxsning o‘zining xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko‘zi yetmaganligi, lekin ko‘zi yetishi lozim va mumkinligi 	—

MURAKKAB AYBLI JINOYATLAR (JK 23-m.)

Agar shaxs qasddan jinoyat sodir etishi natijasida ehtiyyotsizlik orqasida boshqa ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz bergan va shunday qilmishni qonun qattiqroq javobgarlik bilan bog‘lagan bo‘lsa, bunday jinoyat qasddan sodir etilgan deb topiladi



AYBSIZ HOLDA ZARAR YETKAZISH (JK 24-m.)

**Quyidagi hollarda qilmish aybsiz holda sodir etilgan deb
topiladi, qachonki uni sodir etgan shaxs**

Qilmishga nisbatan

o‘z qilmishining ijtimoiy xavflilik
xususiyatini anglamagan, anglashi
mumkin va lozim ham bo‘lмаган
bo‘lsa

Oqibatga nisbatan

uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga
ko‘zi yetmagan va ishning holatlariغا
ко‘ра ко‘зи yetishi mumkin va lozim
ham bo‘lмаган bo‘lsa

QASDNING BOSHQA TURLARI

Mazmuni va yo‘nalishining xususiyatiga ko‘ra

NOANIQ	ANIQ
<p>ijtimoiy xavfli oqibatlar aybdorning ongida aniq aks etmagan bo‘lsa-da, bunday oqibatlarning kelib chiqishiga nisbatan ma‘qullashga o‘xshash irodaning namoyon bo‘lishi, umuman olganda, ularni ko‘zda tutilganligini izohlaydi</p>	<p>Muqobil ikki yoki undan ortiq ko‘zda tutilgan natijalardan birining kelib chiqishini istash bilan izohlanadi</p> <p>MUTLAQ-MUAYYAN aniq bir jinoiy natijaning kelib chiqishini istash bilan ta’riflanadi</p>


Paydo bo‘lish vaqtiga ko‘ra

OLDINDAN O‘YLANGAN	TO‘SATDAN PAYDO BO‘LGAN	AFFEKTLASHGAN
<p>qasdning vujudga kelish vaqtining jinoyatga aylanish oralig‘idagi vaqt bilan ajratiladi</p>	<p>jinoiy niyat qasd paydo bo‘lishi bilan amalga oshiriladi (ko‘rdi-sodir etdi)</p>	<p>jabrlanuvchining huquqqa xilof harakatlari orqali vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish natijasida kelib chiqadi</p>

JINOYATNING MOTIVI VA MAQSADI

<i>Motiv</i>	<i>Maqsad</i>
Undovchi hissiyot, inson aktiv faoliyatining manbai, ya’ni uni ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etishga undagan mayl yoki sababiyat	Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsnинг qilmish natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatga nisbatan xayoliy natijasi

Jinoyat motivi va maqsadining huquqiy ahamiyati



JINOYAT HUQUQIDA XATO

**(sodir etilayotgan tajovuzning yuridik va faktik holatlariga nisbatan shaxsning
noto‘g‘ri, adashgan tasavvuri)**

YURIDIK XATO

Shaxs sodir etgan qilmishining jinoiy yoki jinoiy emaslik xususiyatiga, uning kvalifikatsiyasi va jazoga sazovorligiga nisbatan adashganligi

Qilmishning jinoyligiga nisbatan xato	Qilmishning jinoiy emasligiga nisbatan xato	Qilmishning kvalifikatsiyasiga nisbatan xato	Jazoning xususiyatiga nisbatan xato
Shaxs ma’lum bir qilmishni sodir etib, uni huquqqa xilofligida adashadi, ya’ni uni jinoyat deb hisoblaydi, ayni vaqtida bu qilmish JK bilan nazarda tutilmagan bo‘ladi. Jinoiy javobgarlikni istisno qiladi	Shaxs qilmishining obyektiv xususiyatini anglab, jinoyat qonunchiligi harakati ta’siriga tushmayman deb noto‘g‘ri o‘ylaydi. Agar shaxs qilmishining huquqqa xilofligini bilmagan va bilishi mumkin ham bo‘lмаган hollarda jinoiy javobgarlik istisno qilinadi	Ma’lum jinoiy-huquqiy normalar bo‘yicha o‘z qilmishini huquqiy baholashda yanglishishdan iborat. Ayb va javobgarlikka ta’sir qilmaydi	Shaxsning qonunda haqiqatan ham o‘rnatilgan jazo choralariga nisbatan adashganligi. Javobgarlik va uni amalga oshirish shakllariga ta’sir qilmaydi

FAKTIK XATO

FAKTIK XATO – shaxsning jinoyat tarkibi obyekti, obyektiv tomoni yoki kvalifikatsiya belgilariga nisbatan adashganligi

OBYEKTGA NISBATAN XATO

Agar shaxsning qasdi bitta obyektga qaratilgan bo‘lib, amalda zarar birinchi obyektga turdosh bo‘lmagan boshqa obyektga yetkazilsa, javobgarlik aybdorning qasdi bilan qamrab olingan obyektga tajovuz qilinganligi uchun yuzaga keladi

Agar aybdor adashib boshqa turdosh obyektga zarar yetkazsa, javobgarlik amalda yetkazilgan zarari uchun vujudga keladi

Jinoyat predmeti yoki jabrlanuvchi shaxsiga nisbatan xatoda aybdor nazarda tutgan shaxs yoki predmetga emas, balki boshqa bir predmet yoki shaxsga tajovuz qilinadi. Bu xato kvalifikatsiyaga ta’sir etishi mumkin

OBYEKTIV TOMON BELGILARIGA NISBATAN XATO

Jinoiy maqsadiga erishish uchun shunday vositalardan foydalanadiki, ular o‘z obyektiv xususiyatiga ko‘ra ijtimoiy xavfli oqibat keltirib chiqarmaydi. Jinoiy niyatni amalga oshirish darajasiga qarab kvalifikatsiya qilinadi

Jinoyat sodir etishni ko‘zlamasdan, xatoga yo‘l qo‘yib ma’lum vositadan foydalanadi va buning natijasida ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqadi. Javobgarlikka ta’sir etadi

Sababiyl bog‘lanishning rivojlanishiga nisbatan xato shundaki, shaxs sodir etayotgan qilmishi va kelib chiqqan oqibat o‘rtasidagi sababiyl bog‘lanishning rivojlanishiga nisbatan adashadi. Shaxs qasd qilgan jinoyati va amalda kelib chiqqan oqibat uchun javobgarlikka tortiladi

KVALIFIKATSIYAGA NISBATAN XATO – shaxs kvalifikatsiya qiluvchi holat bor yoki yo‘qligiga nisbatan adashadi. Javobgarlik shaxsning qasdi mazmuniga muvofiq vujudga keladi

VI bob. Tamom bo‘lмаган жинойат

«QASDDAN JINOYAT SODIR ETISH BOSQICHLARI» TUSHUNCHASI VA TURLARI

Jinoyat sodir etish bosqichlari – qasddan sodir etiladigan jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) sodir etilishi sifatiga ko‘ra o‘zaro farq qiladigan va aybdor jinoiy maqsadini amalga oshirishining turli darajasini aks ettiruvchi, ma’lum rivojlanish bosqichlari yoki davrlaridir

TAMOM BO‘LMAGAN JINOYAT		TAMOM BO‘LGAN JINOYAT
Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish	Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish	Tamom bo‘lgan jinoyat deganda Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddasining dispozitsiyasida ko‘zda tutilgan barcha zaruriy obyektiv va subyektiv belgilarning shaxsning qilmishida mavjudligi tushuniladi
Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rganlik va jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun javobgarlik JK Maxsus qismining tamom bo‘lgan jinoyat uchun javobgarlikni belgilovchi moddasiga muvofiq hal qilinadi		

JINOYATGA TAYYORGARLIK KO'RISH (JK 25-m. 1-q.)

Shaxsning qasddan qilinadigan jinoyatni sodir etish yoki yashirish uchun shart-sharoit yaratuvchi qilmishi o'ziga bog'liq bo'lman holatlarga ko'ra sodir etilishi boshlangunga qadar to'xtatilgan bo'lsa, bunday qilmish **jinoyatga tayyorgarlik ko'rish** deb topiladi

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rishning obyektiv belgilari



Tamom bo'lgan jinoyat tarkibining obyektiv tomoniga kirmaydigan qilmishlar

jinoyatni sodir etish uchun shart-sharoit yaratishga yo'naltirilganlik

jinoyatni yashirish uchun shart-sharoit yaratishga yo'naltirilganlik

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rishning subyektiv belgilari



Majburiy oxiriga yetkazmaslik deganda, shaxsga bog'liq bo'lman holda jinoyat tarkibining obyektiv tomonini tashkil etadigan belgilarni amalga oshirish boshlangunga qadar shaxs faoliyatining to'xtab qolishi

To'g'ri qasd

Shaxs o'z xarakatlari bilan kelajakda jinoyatni sodir etishga yoki yashirishga shart-sharoitlar yaratayotganligini anglashi va uni sodir etishni istashi

JINOYAT SODIR ETISHGA SUIQASD QILISH (JK 25-m. 2-q.)

Qasddan sodir etiladigan jinoyat boshlanib, shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra oxiriga yetkazilmagan bo‘lsa, jinoyat sodir etishga suiqasd deb topiladi

Jinoyat sodir etishga suiqasd qilishning obyektiv belgilari

Jinoyat sodir etishga suiqasd qilishning subyektiv belgilari



Jinoyat sodir etishning boshlanganligi – shaxs aniq jinoyat tarkibining obyektiv tomonini tashkil qiluvchi belgilarni bajarishga kirishganligi yoki ularni bajarayotganligi

Majburan oxiriga yetkazmaslik

To‘g‘ri qasd

Formal tarkibda shaxs aniq jinoyat tarkibining obyektiv tomonini tashkil qiluvchi belgilarni bajarishga kirishganligini va ularni to‘liq hajmda bajarishi mumkinligini anglashi

Shaxs o‘z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglashi, sodir etayotgan qilmishi natijasida kelib chiqadigan ijtimoiy xavfli oqibatlarga ko‘zi yetishi va ijtimoiy xavfli oqibatlarning kelib chiqishini istashi

JINOYAT SODIR ETISHGA SUIQASD QILISHNING TURLARI

JINOYAT SODIR ETISHGA SUIQASD QILISHNING TURLARI

Jinoiy niyat amalga oshirilganlik darajasi bo'yicha



tugallangan

jinoyatni oxiriga yetkazish uchun subyekt zarur deb hisoblagan barcha choralarни qо'llaydi, lekin mazkur jinoyat aybdorga bog'liq bo'Imagan holatlarga ko'ra yoki uning jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy voz kechishi natijasida jinoyat oxiriga yetkazilmaydi



tugallanmagan

shaxs mo'ljallagan qilmishning muayyan qisminigina bajaradi

**Yaroqlilik darajasi
bo'yicha**

yaroqli

yaroqsiz

"yaroqsiz" obyektga suiqasd qilish

"yaroqsiz" vositalar bilan suiqasd qilish

Javobgarlik faktik xato to'g'risidagi qoidalar bo'yicha kelib chiqadi

JINOYAT SODIR ETISHDAN IXTIYORIY QAYTISH (JK 26-m.)

Shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish harakatlarini yoki jinoyat sodir etishga bevosita qaratilgan harakatlarini oxiriga yetkazishi mumkinligini anglagan holda to‘xtatsa, shuningdek jinoiy oqibat kelib chiqishi mumkinligini anglagan holda, shunday oqibat kelib chiqishining oldini olsa,
jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb topiladi

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning belgilari

Shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish harakatlarini yoki jinoyat sodir etishni to‘xtatishi yoxud jinoiy oqibat kelib chiqishi-ning oldini olishi

Batamomlik, ya’ni jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish harakatlarini yoki boshlangan jinoyatni sodir etishi, kelajakda muayyan vaqt o‘tgandan so‘ng davom ettirmaslik niyatida to‘liq to‘xtatishi

Ixtiyorilik, ya’ni shaxs o‘ziga bog‘liq bo‘lмаган qandaydir holatlar yuzasidan emas, balki o‘z ixtiyor bilan jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish harakatlarini yoki boshlangan jinoyatni sodir etishni to‘xtatishi yoxud o‘zining xulqi natijasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan jinoiy oqibatlarning oldini olishga qaratilgan faol harakatlari

Shaxsning jinoyatni oxiriga yetkazish mumkinligini anglashi

Agar shaxsning qilmishida boshqa jinoyat tarkibining alomatlari mavjud bo‘lmasa, qilmish ko‘rsatilgan belgilardan iborat bo‘lsa, jinoiy javobgarlik istisno qilinadi

IXTIYORIY QAYTISHNING TURLARI

Ixtiyoriy qaytishning turlari



Faol ixtiyoriy qaytish

Jinoiy natijaning boshlanishi va uning amalga oshishi uchun barcha zaruriy harakatlar sodir etilgan, shuningdek mazkur jinoyatning vujudga kelishini anglagan holda shaxs o‘z qilmishining jinoiy natijasi kelib chiqishining oldini olganligi bilan ifodalanadi



Passiv ixtiyoriy qaytish

Shaxsning jinoyat sodir etishga tayyorgarlik harakatlarini yoki sodir etayotgan jinoyatini to‘xtatganligi, ya’ni jinoyatni oxiriga yetkazish imkoniyati borligini anglagan holda, suiqasd qilish bilan ifodalanadi



Faqat tugallangan suiqasd bosqichida va qilmish natijasida jinoiy oqibat birdan yuz bermaydigan moddiy tarkibli jinoyatlarni sodir etishda bo‘lishi mumkin



Jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida bo‘lishi mumkin

VII bob. Jinoyatda ishtirokchilik

«JINOYATDA ISHTIROKCHILIK» TUSHUNCHASI (JK 27-m.)

Ikki yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi
ishtirokchilik deb topiladi

JINOYATDA ISHTIROKCHILIK BELGILARI

Obyektiv

Subyektiv

Ikki yoki undan
ortiq shaxsning
jinoyat sodir
etishda qatnashishi

Birgalashib qatnashish:
jinoyat sodir etiladi, jinoiy
faoliyat umumiy, birlashgan
kuchlar yordamida amalga
oshiriladi

Aybning qasd shakli
mayjudligi

O'zaro
xabardorlik

JINOYAT ISHTIROKCHILARINING TURLARI (JK 28-m.)

Jinoyat ishtirokchilarining turlari

Bajaruvchi

Jinoyatni bevosita to‘la yoki qisman sodir etgan yoxud jinoyat kodeksiga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lmagan shaxslardan yoki boshqa vositalardan foydalanib, jinoyat sodir etgan shaxs (2-q.)

Tashkilotchi

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rilihiga yoki jinoyat sodir etilishiga rahbarlik qilgan shaxs (3-q.)

Dalolatchi

Jinoyat sodir etilishiga qiziqtiruvchi shaxs (4-q.)

Yordamchi

Jinoyat sodir etilishiga o‘z maslahatlari, ko‘rsatmalari bilan vositalar berish yoki to‘siqlarni yo‘qotish bilan ko‘maklashgan, shuningdek jinoyatchini, jinoyat sodir etish quroli, izlari va vositalarini yoxud jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan narsalarni yashirishga, shuningdek bunday narsalarni olish va o‘tkazish to‘g‘risida oldindan va’da bergen shaxs (5-q.)

ISHTIROKCHILIKNING SHAKLLARI (JK 29-m.)

Ishtirokchilikning shakllari			
<i>Oddiy ishtirokchilik</i>	<i>Murakkab ishtirokchilik</i>	<i>Uyushgan guruh</i>	<i>Jinoiy uyushma</i>
Ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirmay jinoyat sodir etishda qatnashishi (2-q.)	Ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirib jinoyat sodir etishda qatnashishi (3-q.)	Ikki yoki undan ortiq shaxsning bиргаликда jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhga birlashishi (4-q.)	Ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun oldindan birlashishi (5-q.)

JINOYATDA ISHTIROK ETGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK DOIRASI (JK 30-m.)

Tashkilotchi, dalolatchi va yordamchi jinoiy javobgarlikka JKning 28-moddasiga havola qilgan holda, bajaruvchi esa sodir etgan jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi modda bo‘yicha javobgarlikka tortiladi, ular jinoyatni birgalikda bajargan hollar bundan mustasno (1-q.)

Oldindan til biriktirgan guruh, jinoiy guruh va jinoiy uyushmaning tashkilotchilar hamda a’zolari tayyorgarlik ko‘rilishi yoki sodir etilishida o‘zлari qatnashgan barcha jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladilar (2-q.)

Uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tashkil etgan yoki ularga rahbarlik qilgan shaxslar shu guruh yoki uyushma sodir etgan barcha jinoyatlar uchun, basharti, bu jinoyatlar ularning jinoiy niyati bilan qamrab olingen bo‘lsa, javobgarlikka tortiladilar (3-q.)

Boshqa ishtirokchilarning qasdi bilan qamrab olinmagan qilmish uchun uni sodir etgan shaxsgina javobgar bo‘ladi (eksess bajaruvchi) (4-q.)

Shaxs JKning Maxsus qism moddasida ko‘rsatilgan jinoyat subyekti deb hisoblanib, mazkur moddada belgilangan jinoyatni sodir etishda qatnashgan bo‘lsa, u tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortiladi

JINOYATGA DAXLDORLIK (JK 31-m.)

Jinoyatga daxldorlik, ya’ni boshqa shaxslar sodir etgan jinoyatda qatnashmagan, lekin ular bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning xatti-harakati, ya’ni:



Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rilayotganligi, jinoyat sodir etilayotganligi yoki jinoyat sodir etilganligi haqida aniq bila turib, oldindan va’da bermagan holda, hokimiyat organlariga xabar qilmaslik (1-q.)



Jinoyatchini, jinoyat sodir etish quroli va vositalarini, jinoyat izlarini yoki jinoiy yo‘bilan qo‘lga kiritilgan narsalarni oldindan va’da bermagan holda yashirganlik (2-q.)



Javobgarlik JK 241-moddasida nazarda tutilgan hollardagina yuzaga keladi

Oldindan va’da bermagan holda jinoyat haqida xabar bermaganlik yoki jinoyatni yashirganlik uchun gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining yaqin qarindoshlari javobgarlikka tortilmaydilar (3-q.)

VIII bob. Bir qancha jinoyat sodir etish

Bir qancha jinoyat – jinoiy javobgarlikka tortilgan yoki tortilmaganligi, sudlangan sudlanmaganligidan qat'i nazar, shaxs tomonidan ikki yoki undan ortiq jinoyatni sodir etish tushuniladi

Belgilari



Shaxs tomonidan ikki yoki undan ortiq jinoyatni sodir etish



Shaxs tomonidan turli vaqtlardarda ikki yoki undan ortiq jinoyatni sodir etish



Har bir sodir etilgan qilmish jinoiy-huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi

Shakllari



Takroran jinoyat sodir etish




Jinoyatlar majmui




Retsidiv jinoyat

TAKRORAN JINOYAT SODIR ETISH (JK 32-m.)



JINOYATLAR MAJMUI (JK 33-m.)



RETSIDIV JINOYATNING TURLARI (JK 34-м.)


Retsidiv jinoyatning turlari

<i>Oddiy retsidiv (1-q.)</i>	Shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etishi
<i>Xavfli retsidiv (2-q.)</i>	Ilgari hukm qilingan jinoyatiga o'xshash jinoyat sodir etgan, Jinoyat Kodeksida alohida ko'rsatilgan hollarda esa, Maxsus qismning boshqa moddalari bilan ham hukm qilingan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishi
<i>O'ta xavfli retsidiv (3-q.)</i>	Besh yildan kam bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan yangi jinoyatni qasddan sodir etishi
 O'ta og'ir jinoyat uchun	 Og'ir jinoyat uchun
Ilgari o'ta og'ir jinoyati uchun yoki ikki marta og'ir jinoyati uchun hukm qilinib, ularning har biri uchun besh yildan kam bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxs tomonidan sodir etilishi	Ilgari og'ir jinoyati uchun ikki marta hukm qilingan yoki oldin-keyinligidan qat'i nazar, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar uchun ularning har biriga besh yildan kam bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxs tomonidan sodir etilishi

Uchinchi bo‘lim. QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILADIGAN HOLATLAR

IX bob. «Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar» tushunchasi va turlari

Qilmishda Jinoyat Kodeksida nazarda tutilgan alomatlar rasmiy jihatdan mavjud bo‘lsa-da, lekin u ijtimoiy xavfli, g‘ayriqonuniy yoki aybli bo‘lmasa, qilmishning **jinoiyligini istisno qiladigan** holatlar deb topiladi



KAM AHAMIYATLI QILMISHLAR (JK 36-m.)

Garchi Jinoyat Kodeksida jinoyat sifatida nazarda tutilgan qilmishning alomatlari mavjud bo‘lsa-da, o‘zining kam ahamiyatliligi tufayli ijtimoiy xavfli bo‘limgan harakat yoki harakatsizlik jinoyat deb topilmaydi

Qilmishni kam ahamiyatli deb topish masalasi aniq ishning quyidagi faktik holatlar majmui asosida aniqlanadi:



Obyektiv belgilar

qilmishning xususiyati, holati, sodir etilish sharoiti, katta ahamiyatga ega zararli oqibatlarning bo‘lmasligi, yetkazilgan zararning uncha katta bo‘lmasligi yoki umuman zararning mavjud emasligi va hokazo



Subyektiv belgilar

aybning shaxsda ahamiyatga ega zarar yetkazish xohish-istagi bo‘limganligidan guvohlik beruvchi mazmuni

Qilmishda, uning kam ahamiyatliligi tufayli ijtimoiy xavflilik yo‘qligi aniqlansa, qo‘zgatilgan jinoyat ish tugatilishi, shaxs esa O‘zbekiston Respublikasi JPK 83-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan jinoyat tarkibining yo‘qligi tufayli aybsiz deb topilishi belgilangan

ZARURIY MUDOFAA (JK 37-m.)

Zaruriy mudofaaa holatida sodir etilgan, ya’ni mudofaalanuvchi yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga hilof tajovuzlardan tajovuzchiga zarar yetkazgan holda himoya qilish chog’ida qilingan harakat, agar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqilmagan bo‘lsa, jinoyat deb topilmaydi

Qonuniylik shartlari:

tajovuzga nisbatan

Tajovuzning huquqqa
xilof bo‘lishi

Tajovuz boshlangan,
davom etayotgan bo‘lishi

Tajovuzning haqiqiy
bo‘lishi

himoyaga nisbatan

Himoyadan maqsad mudofaalanuvchi yoki
boshqa shaxsning huquq va erkinliklarini,
jamiyat va davlat manfaatlarini
muhofaza qilish bo‘lishi kerak

Himoyada faqat
tajovuzchiga zarar
yetkazilishi

Himoya qilish
zarurat chegarasida
amalga oshirilishi

OXIRGI ZARURAT (JK 38-m.)

Oxirgi zarurat holatida, ya’ni shaxsning yoki boshqa fuqarolarning shaxsiga yoxud huquqlariga, jamiyat yoki davlat manfaatlariiga tahdid soluvchi xavfni qaytarish uchun qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlarga zarar yetkazgan holda sodir etilgan qilmish, basharti, shu xavfni o’sha holatda boshqa choralar bilan qaytarishning iloji bo‘lmasa hamda keltirilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo‘lsa, jinoyat deb topilmaydi.

Oxirgi zaruratning qonuniylik shartlari

XAVFGA NISBATAN

Xavfning turli manbalardan
paydo bo‘lishi

Xavfning boshlanganligi

Xavfning haqiqiyligi

Xavfni bartaraf etishga nisbatan

Ijtimoiy foydali
maqsadning
mavjudligi

Amalda yetkazilgan
zarar oldi olingan
zarardan kam bo‘lishi

Zararning
uchinchisi shaxslar
manfaatlariiga
yetkazilishi

Xavfni boshqa
vositalar bilan
bartaraf etishning
ilioji yo‘qligi

IJTIMOIY XAVFLI QILMISH SODIR ETGAN SHAXSNI USHLASH VAQTIDA ZARAR YETKAZISH (JK 39-m.)

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni hokimiyat organlariga topshirish maqsadida ushlash vaqtida unga zarar yetkazish, agar uni ushlash uchun zarur bo‘lgan choralarining chegarasidan chetga chiqilmagan bo‘lsa, jinoyat deb topilmaydi

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazishning qonuniylik shartlariga quyidagilar kiradi:

Ushlashni amalgalash bilan bog‘liq choralariga

Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etishga

→ Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni hokimiyat idoralariga topshirish maqsadida ushlash

← Shaxsni ushlash uchun uning ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganligi

→ Ushlanadigan shaxsga yetkazilgan zarar tajovuzning va ushlash vaziyatining xavfilingiga mos bo‘lishi

← Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsning ushlanishdan qochish yoki fuqarolarning qonuniy faoliyatiga qarshilik ko‘rsatishi


→ Zarar yetkazish, ushlashning yagona vositasi va usuli ekanligi

← Ushlash huquqi jinoiy javobgarlikka tortish muddati yoki jazoni ijro etish muddati doirasida amalgalash bilan bog‘liq choralariga

BUYRUQ YOKI BOSHQA VAZIFANI IJRO ETISH (JK 40-m.)

Shaxsning buyruq yoki boshqa farmoyishni, shuningdek mansab vazifalarini qonunan bajarishi tufayli zarar yetkazilgan bo‘lsa, jinoyat deb topilmaydi

Buyruq yoki boshqa vazifani ijro etishning qonuniylik shartlari




G‘ayriqonuniy ravishda berilgan buyruq yoki farmoyishni bajargan yoxud mansab vazifasini bajarmagan yoki buzgan shaxs javobgarlikka tortilmaydi. Shaxsning amalda sodir etgan qilmishida boshqa bir jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo‘lsagina, u javobgarlikka tortiladi (3-q.).

KASB YOKI XO‘JALIK FAOLIYATIGA BOG‘LIQ ASOSLI TAVAKKALCHILIK (JK 41-m.)

Ijtimoiy foydali maqsadga erishish uchun kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilik qilib, huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazish jinoyat deb topilmaydi

Kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilikning qonuniylik shartlari



Tavakkalchilik odamlarning halok bo‘lish xayfi, ekologik halokat yoxud boshqacha og‘ir oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligini bila turib qilingan bo‘lsa, asosli deb topilmaydi

KASB YOKI XO‘JALIK FAOLIYATIGA BOG‘LIQ ASOSLI TAVAKKALCHILIK

Tadbirkorlik subyektlarining o‘zlariga ko‘rsatilgan xizmatlar, shu jumladan berilgan kreditlar yuzasidan banklar va boshqa moliya tashkilotlari oldidagi shartnoma majburiyatlarini tadbirkorlik tavakkalchiliklari hamda boshqa tijorat tavakkalchiliklari bilan bog‘liq holda bajarmaganligi

banklar va boshqa moliya tashkilotlari xodimlarini jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lmaydi



To‘rtinchi bo‘lim. JAZO VA UNI TAYINLASH

X bob. «Jazo» tushunchasi, maqsadi va turlari

«Jazo» tushunchasi
(JK 42-m. 1-q.)

Jazo majburlov chorasi bo‘lib,

jinoyat sodir etishda
aybdor deb topilgan
shaxsga qo‘llaniladi

mahkumni qonunda
ko‘rsatilgan muayyan
huquq va erkinliklardan
mahrum qilish yoki ularni
cheklashdan iborat

sud hukmi bilan
davlat nomidan
qo‘llaniladi

Jazoning maqsadlari (42-m. 2-q.)

Mahkumlarni axloqan tuzatish – jazoni o‘tashda shaxsdagi salbiy ijtimoiy-ruhiy xususiyatlar o‘rniga jinoiy bo‘lmagan xususiyatlar paydo bo‘lishini, jumladan, Respublika Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarga rioya etish, ularni hurmat qilish xislatlarini shakllantirish

Jinoiy faoliyatni davom ettirishga to‘sqinlik qilish – davlat jinoiy jazoni qo‘llash bilan o‘z fuqarolarini mazkur jinoyatchidan saqlaydi va himoya qiladi, bunda davlat jinoyatchini qonunga itoatgo‘y fuqarolar orasida jinoyat sodir etishga qaratilgan jismoniy imkoniyatidan mahrum etadi

Mahkumning boshqa jinoyatlar sodir etishining **oldini olish** (xususiy yoki maxsus prevensiya)

Boshqa shaxslar jinoyat sodir etishining **oldini olish** (umumiyligi prevensiya)

Bunga quyidagilar orqali erishiladi:

a) sud tayinlagan jazoni amalda qo‘llash

b) jinoyat sodir etgan shaxsga jazoning ruhiy ta’siri

Bunga quyidagilar orqali erishiladi:

a) jazo tahdidi bilan ijtimoiy xavfli qilmishni taqiqlovchi jinoyatlar to‘g‘risidagi qonuning mavjudligi

b) jinoyatlar to‘g‘risidagi qonundagi taqiq yoki qoidalarni buzgan shaxsga jazoni amalda qo‘llash orqali ruhiy ta’sir o‘tkazish

JAZO TIZIMI (JK 43-m.)

Jazo tizimi – og‘irligi darajasiga ko‘ra yengilroq jazodan og‘irroq jazoga tomon yo‘naltirilgan jazo turlarining to‘liq ro‘yxati

JAZO TIZIMINING AHAMIYATI



Jazo tizimida qonuniylik, insonparvarlik, odillik prinsiplari o‘z aksini topgan



Jazo tizimi Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi sanksiyalarning tuzilishini belgilab beradi



Jazo tizimi sudlar tomonidan odil sudlovni amalga oshirish uchun yuridik baza hisoblanadi

JAZO TURLARI (JK 43-m.)

JAZO TURLARI

Asosiy jazolar

jarima

qamoq

muayyan huquqdan mahrum qilish

intizomiy qismga jo‘natish

axloq tuzatish ishlari

ozodlikdan mahrum qilish

xizmat bo‘yicha cheklash


umrbod ozodlikdan mahrum qilish

Qo‘srimcha jazolar


harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish

JARIMA (JK 44-m.)

Jarima – aybdordan davlat daromadiga Jinoyat Kodeksida belgilangan miqdorda pul undirish



agar mahkum jazo tarikasida tayinlangan jarimani to‘lashdan uch oy mobaynida bo‘yin tovlasa, sud jarimaning to‘lanmagan miqdorini quyidagi jazo turlariga **almashtiradi**



MUAYYAN HUQUQDAN MAHRUM QILISH (JK 45-m.)

**Shaxsni muayyan huquqdan mahrum qilish sud tayinlagan
muddat davomida aybdorga quyidagilarni taqiqlaydi**



korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlarda
u yoki bu mansabni egallashi

u yoki bu faoliyat bilan
shug‘ullanishi

asosiy jazo tariqasida

1 yildan 5 yilgacha

qo‘srimcha jazo tariqasida

1 yildan 3 yilgacha

AXLOQ TUZATISH ISHLARI (JK 46-m.)

Axloq tuzatish ishlari shaxsni mehnatga majburan jalg qilishdan iborat bo‘lib,



ish haqining 10% dan
30% gacha miqdorini
davlat daromadi hisobiga
ushlab qolinadi



6 oydan 3 yilgacha
muddatga
tayinlanadi



Jazo mahkumning o‘z ish joyida
yoki mazkur jazo ijrosini nazorat
qiluvchi organlar belgilab
bergan joylarda ijro etiladi

Shaxs tayinlangan muddatning jami bo‘lib o‘ndan bir qismidan ko‘prog‘ini o‘tashdan bo‘yin
tovlasa, sud axloq tuzatish ishlarining o‘talmagan muddatini xuddi shu muddatga ozodlikdan
mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi (4-q.)

AXLOQ TUZATISH ISHLARI (JK 46-m.)

Axloq tuzatish ishlari quyidagilarga nisbatan qo‘llanilmaydi (3-q.)

nafaqa yoshidagi shaxslarga

mehnatga layoqatsizlarga

homilador ayollarga

yosh bolasini boqish uchun ta’tilda bo‘lgan ayollarga

harbiy xizmatchilarga

XIZMAT BO‘YICHA CHEKLASH (JK 47-m.)

Xizmat bo‘yicha cheklash quyidagilardan iborat

harbiy xizmatni kontrakt
bo‘yicha o‘tayotgan
harbiy xizmatchiga
nisbatan qo‘llaniladi

ikki oydan uch
yilgacha muddatga
qo‘llaniladi

pul ta’mintoning o‘n foizidan o‘ttiz
foizigacha bo‘lgan miqdorini davlat
daromadi hisobiga ushlab qolishdan iborat

Ijtimoiy xavfi katta bo‘limgan yoki ehtiyoitsizlik orqasida sodir etilgan jinoyat uchun sud ish
holatlari va mahkumning shaxsini hisobga olgan holda **uch yildan ko‘p bo‘limgan** muddatga
ozodlikdan mahrum qilish, qamoq yoki axloq tuzatish ishlari jazosi o‘rniga **shu muddatga** xizmat
bo‘yicha cheklash jazosini qo‘llashi mumkin

*jazoni o‘tash
muddati davomida*

mahkumning mansabini, harbiy yoki maxsus unvonini
